

GLOBAL ISISH VA ISSIQXONA SAMARASI



Abstract:

Ushbu maqolada siz global isishning sabablarini, ta'sir natijalarini va uning oqibatida yuzaga keladigan muammolar haqida ma'lumot olishingiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, "issiqxona samarasi" ni yuzaga keltirgan omillar va insonning tabiatga ta'siri qanchalik katta ekanligi borasida fikr va mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari, Global isishning ta'sir doirasini kamaytirish va "issiqxona ta'siri" ni oldini olish bo'yicha yechim va takliflar berilgan.

Key words:

Global isish, issiqxona ta'siri, harorat, atmosfera, karbonat anhidrid, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, oziq-ovqat, tabiiy ofatlar.

Author of the article:

Xudoyorov Lochinbek
Mavlonova Surayyo
Hasan qizi

Workspace (Education subject)

Shahrisabz davlat
pedagogika instituti

Insoniyat tarixida XX asr fan - texnikaning rivojlanishi bilan boshlandi. Ammo shu bilan birgalikda, chambarchas bog'liq holda qator olamshumul muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ular ta'sir doirasining darajasi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Ana shunday muhim dunyoviy muammolardan biri bu Yer sharining global miqyosda isishidir. Umuman olganda, global isish karbonat anhidrid (CO₂) gazi va boshqa ta'siri kamroq bo'lgan havoni ifloslantiruvchi moddalar atmosfera ya'ni (havo qobig'i) da to'planib, Quyosh nuri ta'sirida va uning Yer yuzasiga tushgan nurlarini o'zlashtirishi natijasida sodir bo'ladi. Bu o'z navbatida iqlim o'zgarishiga ta'sir qilmoqda. Dunyoning deyarli har bir burchagida yashab kelayotgan insonlar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan hodisalarni o'z tanalarida his qilishmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgani ma'lum bo'ldi. Olimlar 2040-yilga kelib o'rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini ma'lum qildi. Bu esa o'z navbatida Yer yuzasi haroratining ortishi, suv toshqinlari, qurg'oqchilik va qutb muzliklarining tezlik bilan erishi natijasida, dengiz sathining ko'tarilishiga sabab bo'ladigan salbiy oqibatlariga olib keladi.

Ma'lumki, global isish natijasida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar soni so'ngi 50 yil ichida dunyoda 5 barobarga oshdi. German watch Climate Risk Index 2020 yillik hisobotida ma'lum qilishicha, Yaponiya, Filippin va Germaniya tabiiy ofatlardan eng ko'p zarar ko'rgan mamlakatlar bo'lgan. Mablag' ko'rinishida eng ko'p zararni Hindiston (37 milliard dollar) va Yaponiya (35 milliard dollar) ko'rgan. Eng achinarli holat shundaki, ma'naviy yo'tish ya'ni insonlar bilan bog'liq o'lim holati qayd etilgan. Eng ko'p o'lim holati Hindistonda qayd etilgan - 2081 kishi, Germaniya va Yaponiyada - 1,2 mingdan ortiq kishi vafot etgan. Afsuski, buning tag zamidida iqlim o'zgarishi yotibdi. Global isish davom etishi natijasida qurg'oqchilik, suv toshqini, sovuq va issiq haroratlar o'rtasidagi yanada jiddiy burilish bilan kechadi. Hech shubha yo'qki, bu Yer yuzidagi barcha tirik mavjudot uchun og'ir kunlarni olib kelishiga sababchi bo'ladi.

Ikkinchi tomondan oladigan bo'lsak "issiqxona samarasi" tushunchasi bu deyarli hammaga tanish tushunchadir. Parnik ya'ni "issiqxona samarasi" bu shunday hodisaki, uning ishi natijasida sayyoramizning o'rtacha harorati ko'tarilib boradi ya'ni undagi tirik jonlarga ta'sir qilib boradi. Tun va kun o'rtasida farq kamayadi. Parnik samarasiga ko'proq Yer yuzi qazilma boyliklarining ayovsiz ishlatilishi oqibatida ulardan ajralib chiquvchi karbonad anhidrid, metan, is gazi va boshqa gazlarning atmosferaga o'tib, Yer yuzasidan ajralib chiqayotgan issiqlikni

oyna kabi qaytarishidir. Oxirgi 10 yillikda bo'lib, o'tgan issiq haroratli kunlar so'ngi 125 ming yil ichida bo'lib, o'tgan eng issiq yil bo'ldi. Bunga sabab "issiqxona samarasi"ning yildan yilga ortib borayotganligidir. Bu muammo bir necha asrlar ilgari ham mavjud bo'lgan. Ammo ta'sir doirasi kam bo'lganligi uchun, ko'p e'tiborga olinmagan va fanda yoritib berilmagan. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan atmosferada issiqxona ta'sirini ta'minlovchi manbalar yil sayin oshib bormoqda. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1. Transport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar.

2. Sanoat uchun kerakli bo'lgan xomashyolar, ya'ni ko'mir, neft, tabiiy gaz yoqilishi natijasida atmosferaga katta miqdordagi CO₂ va boshqa zararli birikmalarning tarqalishi.

3. Chiqindilarning parchalanishi va yonishi.

4. Intensiv qishloq xo'jaligi.

5. O'rmonlarni kesish.

Issiqxona ta'siri natijalarining, asosiysi bu iqlim o'zgarishi bilan bog'liqdir. Havo haroratining ko'tarilishi, suvning tez bug'lanishiga sababchi bo'ladi va atmosferadan kam miqdorda yog'in tushadi. Shuningdek yetarlicha namlikkaega bo'lmagan hududlar qurg'oqchil bo'lib, yaroqsiz holatga keladi. Bu faqatgina tabiatga ta'sir etib qolmasdan balki, yer yuzidagi barcha tirik jonzoqlar uchun katta xavf solmoqda. Masalan: Qurg'oqchilik tufayli oziq-ovqat miqdori kamayib bormoqda. Dunyoda ochlikdan o'lim holatlari 6 martaga ko'paydi. Oziq-ovqat xavfsizligining yetishmasligi muammosi Afrika Qit'asining davlatlarida eng yuqori darajada bo'lib, 2020-yilda bu muammoga duch kelganlarning 2/3 qismi shu Qit'ada istiqomat qilishi aniqlandi. Agar iqlim o'zgarishi mana shu yusinda davom etaversa dunyoda ocharchilikka duch kelayotgan insonlarning soni keskin ko'payishi muqarrar. Bundan tashqari, Arktikada so'ngi 40 yil ichida harorat deyarli 4 barobarga ko'tarildi. Natijada muzliklar shiddat bilan erib ketmoqda. Oqibatda dengiz suvi sathi o'z hajmini kengaytirmoqda. Bu o'z navbatida suv toshqinlarining darajasi va xavfini yuqori darajaga ko'tarmoqda.

Xulosa qilib aytganda "issiqxona samarasi" ta'siri tufayli yuzaga kelgan muammolar Yer yuzidagi barcha tirik jonzoqlarni og'ir sinovlarga duchor qilmoqda. Bu holatlarni bartaraf qilish imkonsiz lekin oldini olishimiz mumkin. Birinchi navbatda, Issiqxona gazlarini yuzaga keltirayotgan manbalarning sonini qisqartirish kerak va qolgan qismi uchun zararsiz variantini ishlab chiqish zarur. Chunki insoniyat sanoatdan butunlay voz kecha olmaydi. Shuning uchun, Jahon hamjamiyati butun dunyo uchun amalda qo'llanishi muqarrar bo'lgan qonunlarni ishlab chiqishi lozim. Bu orqali biz atrof-muhitni va tirik jonzoqlar hayotini yaxshilay olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.S.Soliyev, N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov, F.T.Rajabov "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" Toshkent. "Noshir" 2019

2. Baratov P. "Tabiatni muhofaza qilish" Toshkent. O'qituvchi, 1991

3. Tilavov T. "Ekologiyaning dolzarb muammolari" Qarshi. Nasaf. 2003

4. <https://uz.wikipedia.org>

5. <https://renovablesverdes.com>